

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI




AL-XORAZMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix fakulteti 202-tarix guruhi talabasi
Niyozmetova Gulzodaning “O`zbekiston xalqlari tarixi”
fanidan

R E F E R A T

Qabul qildi

k/o'q. X.Tangirova



O'ZBEKISTONDA MA'MURIY- BUYRUQBOZLIKNING SHAKLLANISHI

REJA:

I KIRISH

II ASOSIY QISM:

1. O'ZBEKISTONDA MA'MURIY-BUYRUQBOZLIK ORQALI SANOATLASLITIRISH VA UNING OQIBATLARI
2. O'ZBEKISTONDA MA'MURIY-BUYRUQBOZLIK ORQALI QISHLOQ XO'JALIGINI JAMOALASLITIRISH SIYOSATI
3. MUSTABID SOVET REJIMINING O'ZBEKISTONDAGI OMMAVIY QATAG'ON VA TERROR SIYOSATI

III XULOSA

IV FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

KIRISH

Ma'lumki, 1925-yil fevralida milliy-hududiy chegaralasli, o'tkazilganidan keyin O'zbekiston Sovetlarining I qurultoyi «O'zbekiston SSR tuzil-gani to'g'risidagi deklaratsiya»ni tasdiqladi. 1925-yil 13-may kuni SSSR Sovetlarining III qurultoyida O'zbekiston SSR Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi tar-kibiga qabul qilindi. Xalq komissarliklari va idoralarituzildi. Ittifoq va respublika boshqaruv muassasalari birxilda edi; qarorlar va asosiy masalalar, odatda, Markazdaqabul qilinar va hal etilardi. Respublikaning davlat vaxo'jalik apparatiga yordam berish va uni nazorat qilishuchun Markazdan vakillar yuborildi. VKP(b) tutgan yo'lshu vakillar orqali amalga oshirildi. Biroq ular o'zbektilini, xalqning rasm-rusmlari va odatlarini bilmas, mahalhy tartibning o'ziga xoShgini inkor qilardilar.

O'rta Osiyo respublikalarining xalq xo'jaligi va ma- daniyati ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida 1923- yilda taslikil etilgan, **O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengaslii** — СредазЭКОСО 1926-yilda qayta tuzildi. 20-yiUarda boshqa respublikalararo boshqaruv organlari: O'rta Osiyo suv xo'jaligi boshqarmasi (Средазводхоз), O'rta Osiyo Davlat plan qo'mitasi (Средазгосплан), O'rta Osiyo Xalq xo'jaligi Oliy Kengaslii, VTsSPS (Всесоюзный центральный совет профессиональных союзов) O'rta Osiyo byurosi, turli Ittifoq xalq komissarliklarining filiallari ham taslikil etildi.

O'zbekiston SSRda davlat hokimiyatining rasman qonun chiqaruvchi oliy organi Sovetlarning okrug va rayon qurultoylari tomonidan saylanadigan vakillardan tarkib topadigan Sovetlar qurultoyi bo'ldi, respublika davlat boshqaravining oliy organi esa Xalq Komissarlar Kengaslii bo'lib qoldi.

O'zbekiston Kompartiyasining birinchi Ta'sis qurultoyi 1925-yil 6—12-fevralda Buxoroda bo'lib o'tdi. Qurultoyda partiyaning yot unsurlardan tozalasli, guruh- bozlikni tugatish borasida tortishuvlar bo'ldi. Unda Vladimir Ivanov va **Akmal Ikromov** (1898—1938) O'zbekiston Kompartiyasining kotiblari qilib saylandi. Shu partiyaning II qurultoyida (1925-yil 22—30-noyabr), jurnladan, yer islohoti, kooperativ harakat, sovet qurilishi to'g'risidagi ma'ruzalar tinglandi. Shu bilan birga, «yot unsurlar» (kommunistlarning muxoliflari, mulkdorlar va ularning tarafdorlari) yana bir karra qoralandi, saflarni yangidan tozalasliga, guruhbozlar kurasliini tugatishga davlat etuvchi chaqiriqlar yangradi va hokazo.

Biroq, ayniqsa, milliy masala yuzasidan keskin muxoliflik kuraslii davom etdi. O'zbekiston Kompartiyasining III (1927-yil) va IV (1929-yil) qurultoylaridabu masalalar muhim o'rin egallab keldi.

O'ZBEKISTONDA MA'MURIY-BUYRUQBOZLIK ORQALI SANOATLASLITIRISH VA UNING OQIBATLARI

20-yillarning oxiri va 30-yil-larning boshlarida sanoat-laslitirishning jadal sur'atlari-ga o'tishning tub mohiyati texnikaviy qoloq sovet mam-lakatining bor imkoniyatlarini to'g'ri hisobga olmaganholda, zo'ravonlik yo'li bilan tez orada zamonaviysanoatni barpo etishdan iborat bo'ldi.

Industrial taraqqiyot muammolari, uning yo'nalishlari va shakllari partiya ichidagi munozaralarda va dast-labki besh yillik deb nomlangan rejalarining muhoka-masida markaziy o'rinni egalladi. Ixtiloflar, mohiyat e'ti-bori bilan aytganda, xalq xo'jaligining asosiy sohalari bilan madaniyatni bir yo'lda rivojlantirish uchun mablag'larning yetishmasligidan kelib chiqar edi. O'tasanoatlaslitirish tarafdorlari uning sur'atini keskin tezlashtirish maqsadida mablag'larni qishloq xo'jaligihisobidan sanoatga olish rejasini ilgari surdilar. Ularning muxoliflari sanoatlaslitirish siyosatini yoqlagan holda, uni aholining moddiy ahvolini, turmush sharoitlarini yaxshilasli va qishloq xo'jaligida kooperatsiyani asta-sekin ixtiyoriy ravishda amalga oshirish bilan birgalikda olib borishni taklif qildilar. Birinchi yo'nalish rahnamosi Stalin iqtisodiy qonuniyatlarni inkor qilib, sanoat-laslitirishni amalga oshirish uchun favqulodda tadbirlar (qishloq xo'jaligida jamg'arilgan mablag'larni sanoatga olib o'tish va hokozolar) o'tkazdi. Boshqaruvning iqtisodiy usullarini nazar-pisand qilmaslik valyuntarizmga, ma'muriy-buyruqbozlikka katta yo'l ochib berardi. Oqibatda Sanoatlaslitirishning sub'ektivlikka asoslangan stalincha usuli butun mamlakatda, jumladan, O'zbekistonda ham bosh yo'nalish bo'lib qoldi.

Xo'sh, Markaz rahbarlari bularni nimalar asosidavujudga keltirishi mumkin edi? Demak, dasta va mehnatkasli xalqning moddiy-maishiy hisobidan, uning matonatli mehnati tufayli erishishga ishonch hosil qil-gan. Shu asnoda milliy respublikalarda, jumladan, O'zbekistonda sanoatning rivojlanishi tezlatilgan, unda g'ibor resurslardan tez vaqt ichida bahramand bo'lish maqsadida markaziy rayonlardan mavjud ortiqchashchilar bu yerga keltirilib, qurilayotgan zavod va fab-rikalarga joylashtirilgan.

O'zbekiston iqtisodiyoti agrar xarakterga ega edi, zero, 1927/28-xo'jalik yilida xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligining hissasi 61,6 % ni, sanoatniki esa 38,4 % nitaslikil qilardi. Respublikadagi mavjud sanoat ishlab chiqarishining 90 % i qishloq xo'jalik xom asliyosini ish-lasliga ixtisoslasligan edi.

Paxta ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligini qayta tik-lasli dasturida Markaz tomonidan ko'ndalang qilib qo'yilgan vazifalarga muvofiq asosiy e'tibor paxta bilan bog'liq sohalarning rivoji (qishloq xo'jalik masliinasozli-gi, irrigatsiya qurilishi, metall konstruksiyalar, mineralo'g'itlar ishlab chiqarishni, qishloq xo'jalik xom asliyosiva chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoatni), shuningdek, asliyo chiqaruvchi sanoatni (rangli metall, neft, tosliko'mir, tuz, grafit konlarini) vujudga keltirish-ga qaratildi.

O'zbekiston Markazning asosiy paxta bazasiga aylanib qoldi. Shu tariqa respublikada paxta yakka-hokimligi joriy etildi. O'zbek paxtasini ishlab chiqarish ko'paygani tufayli sobiq Ittifoq 30-yillarning boshidapaxta mustaqilligiga erishdi. 1932-yili O'zbekistondamamlakat bo'yicha paxta tolasining 89,7%i, o'simlik moyining 56,4%i, xom ipakning 42%i ishlab chiqarildi. Bu Markaz siyosiy rahbariyatini qoniqtira olmadi.

Paxtachilik va u bilan bog'liq sanoat sohasini rivojlantirish hamda shu qatori xom asliyo bazasini hartomonlama keskin ravishda kuchaytirish, ayniqsa, mahalliy resurslarni (mis, azot va boshqalar) keng ravishda ishlab chiqarishni tezlashtirish, ipakchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, qorako'lchilik va boshqalarni o'stirish sur'atlarini jadallashtirish mo'ljallandi.

O'zbekiston xalqi o'z kuch-quvvati, idroki va mahorati bilan ona diyor ravnaqi uchun safarbar qilib, qisqa muddatlarda hasilamatli sanoat binolarini, irrigatsiya inshootlarini, yangi-yangi yerlarni o'zlashtirar, bog'roqlar va shu kabilarini bunyod etardi. Toshkent qishloq xo'jalik masliinasozligi zavodi (1931), Quvasoy sement va ohak zavodi (1932), Chirchiq elektr kimyo kombinati (1937), Toshkent to'qimachilik kombinati shular jumlasidan. Respublika neft sanoatida ochilgan konlar soni 11 taga (Uchqizil, Xautog' va boshqalar) yetdi. Ohangaron vodiysida Angren qo'ng'ir ko'mir, Sharg'un, Boysuntog' (Surxondaryo) tosliko'mir konlari ishlatildi. Elektr stansiyalari quvvati 482 mln kilovattga yetdi. 30-yillarda Chirchiq-Bo'zsu GESlari kaskadibaro etildi.

Respublikada rangli kamyob va qimmatbaho metallar (oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, oltin-gugurt, ozokerit, simob) konlari ochildi. 30-yillar boshida Ohangaron, Chirchiq vodiylarida, Quramatog'larida oltin konlari topildi. Qo'ytosh volfram-molibden (Jizzax, 1937) konlari ishga tushirildi. Shular qatori-da o'nlab paxta tozalashi zavodlari, to'qimachilik va ipakchilik fabrikalari, oziq-ovqat sanoati korxonalaribaro etildi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi arafasida respublikada 1445 ta yirik va o'rta sanoat korxonalarimavjud edi. Ularda 142 ming kishi mehnat qilardi.

Sanoatni jadal rivojlantirish natijasida O'zbekiston Markazga rangli va nodir metallar, oltin-gugurt, ozokerit, volfram, molibden, paxta tolasini, xom ipak va boshqa strategik xom asliyo yetkazib, chet el xom asliyosiga qaraganda qutqardi. Respublikaning oltin konlar mahsuloti markaziy hokimiyat valyuta balansini muvofiqlashtirishda katta madad berdi.

O'zbekiston sobiq Ittifoqning iqtisodiy mustaqilligiga katta hissa qo'shildi. Shunday qilib, O'zbekiston Markazga muttasil xom asliyo yetkazib beruvchi bazaga aylanib qolaverdi. U aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarishida sobiq SSSRning rivojlangan markaziy mintaqalaridan ancha orqada qolib ketdi. Qazib oluvchi sohalar va qishloq xo'jaligi xom asliyosi hajmlari kattabo'lishiga qaramay, iqtisodiyot strukturasiidagi ishlab beruvchi, masliinasozlik sanoati sohasi umumittifoq darajasidan bir necha baravar past bo'lib qoldi. O'zbekiston iqtisodiyotining industrial-agrar tabiati

mamlakatmarkaziy mintaqalari sanoatining rivojlanishi ehtiyojlarini ta'minlashga qaratildi. Respublikaning iqtisodiy ehtiyojlari va manfaatlari hisobga olinmadi, aholining ijtimoiy ehtiyojlari nazar-pisand qilinmadi. Respublikashchilarining o'rtacha oylik ish haqi 1932-yili taxminan 105 so'mni taslikil etdi. Biroq, shuni nazarda tutish kerakki, o'sha davrda yuqoridan belgilangan narxlar sanoat buyumlarining haqiqiy qiymati va mehnatning asl mazmunini aks ettirmas edi. Ijtimoiy iste'mol jamg'armalarining ishchi va xizmatchilar umumiy daromadlaridagisalmog'i 1931 — 1932-yillarda deyarli 40%ni taslikil etdi. Ham keksalik, ham nogironlik pensiyalarining o'rtachamiqdori 33 so'mdan kamroqni taslikil etgan. Jamiyatning ko'pgina tabaqalari, jumladan, dehqonlar, diniy muassasa va taslikilotlarning xizmatchilari, yakka tar-tibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullangan shaxslar pensiya va nafaqa olish huquqidan amalda foydalanaolmasdilar.

Davlat dasturlarini bilvosita tarzda mablag' bilanta'minlashga aholini majbur etishga intildi. Bunda za-yomlar katta rol o'ynadi, ular esa busiz ham jiddiy moliyaviy muammolarga to'qnasli kelib turgan odamlarga ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri tiqishtirilardi. Bunda g'oyaviy ta'sir, ba'zan esa ma'muriy ta'sirning turli shakllaridan foydalanildi. Sovet davrining hammabosqichlarida oziq-ovqat muammosi bilan bir qatorda, turar joy muammosi ham hamisha keskin bo'lib keldi. Turar joy bilan bog'liq qiyinchiliklar ayniqsa tub aholigadaxldor bo'ldi, chunki bunday joylar ko'pincha sanoat korxonalariga berilar, bu korxonalarining ishchi va mutaxassislari esa asosan sanoatni mustalika maslasi uchun o'z vaqtida sobiq Ittifoqning boshqa joylaridan ko'chib kelgan kishilardan iborat edi.

Sovet tuzumida azaldan mavjud bo'lgan ziddiyatlar 30-yillarda kuchaya boshladi.

Hayotning barcha tomonlari ustidan davlat to'la nazoratolib boradigan, partiya apparati har qanday hukmchiqarishga qodir bo'lgan vaziyatda mehnat kaslilar ha-yotining ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy sohalarini isloh qilish yoki loaqal yumshatish to'g'risida gap ham bo'lishim mumkin emas edi.

O'ZBEKISTONDA MA'MURIY-BUYRUQBOZLIK ORQALI QISHLOQ XO'JALIGINI JAMOALASLITIRISH SIYOSATI

1930-yil 6-fevralda qishloq xo'jaligi artelining bi-rinchi Namunaviy Nizomi qabul qilindi. Nizomdamulkni umumiy laslitirish mezonlari, kolxozlarningbo'linmas fondlari to'g'risida tushuncha berilmagan edi. Natijada turar joy binolari, qo'y-ecliki, qoramollar hamumumiy laslitirildi. Ana shunday noqonuniy hollarQo'qon, Toslikent, Samarqand okruglarida qayd qilindi. Jamoalaslitirishni jadallaslitirish amalda o'zigato'qroq xo'jaliklarni tugatish, ya'ni xo'jalik mulklari vaimoratlarni musodara qilishga aylanib qoldi, yuqoridanqilingan qattiq tazyiq shunga olib keldi.

Quloq xo'jaliklarini tugatish kampaniyasi O'zbe-kistonda 1930-yil fevraldan boshlab avj oldi.

Yuqoridan kelib turgan har xil yo'l-yo'riqlar vako'rsatmalar zo'rlikni avj oldirishga mo'ljallangan edi. Bu yo'l-yo'riqlar kimlarni quloqlar toifasiga kiritish ke-rakligini aniq belgilab bermasdi. Yakka tartibda qishloqxo'jalik solig'i solinadigan o'ziga to'q dehqon xo'jalikla-rining ro'yxati quloq xo'jaliklarini belgilasli uchun asosbo'lib xizmat qildi. Bu ro'yxatlar moliya organlaritomonidan tuzilar va o'rta hoi dehqonlar hatto kam-bag'allar hisobiga kengaytirib borilardi. Chunonchi, Mirzacho'l tumani (Toslikent viloyati)da 137 ta'quloqxo'jaligini tugatish ko'zda tutilgan edi, lekin ro'yxatlar tekshirib chiqilganidan keyin 75 ta xo'jalik tugatildi. Ko'pgina tumanlarda quloq xo'jaliklarinigina emas, balkio'rtahol va hatto kambag'al xo'jaliklar ham musodaraqilindi.

Bunday xo'jaliklarning tugatilishi dehqonlardaishonchsizlik va xavotir uyg'otdi. Ko'pgina odamlar o'zxo'jaliklarini qarovsiz taslilab qochdilar, chorvalariniso'yidilar va sotib yubordilar. Mollarning ko'plab so'yi-lishi jiddiy muammo bo'lib qoldi. Qoramollar boshirespublika bo'yicha 1930-yili 60 mingdan ziyodgakamaydi.

Jadal Jamoalaslitirish va quloq xo'jaliklarini tugatish, o'rtahol dehqonlarga nisbatan zo'rlik qilish respub-likadagi siyosiy vaziyatni keskinlasitirdi. Dehqonlarningnoroziligi kuchayib, ayrim tumanlarda ommaviy norozi-lik namoyishlari boshlandi. 1930-yil 25-fevralda ularFarg'ona vodiysining bir qancha tumanlarida bo'libo'tdi. So'ngra Andijon, Buxoro, Toslikent, Xorazm vaSamarqand okruglarining ba'zi tumanlariga yoyildi.

Jamoalaslitirishga qarshi chiqishlar bir qancha hollar-da sovet hokimiyatiga qarshi siyosiy chiqishlarga aylanibketdi. Jumladan, Farg'onada kolxozlarga qarshi namo-yishlar ko'pchilik hollarda siyosiy tus oldi.

Partiya ma'muriy tazyiq o'tkazishni pasaytirganbo'lsa ham, haddan oshish va buzg'unchilik hollari avjolib ketgan edi. Shuning uchun dehqonlar kolxozlardanchiqib keta boshladilar. Natijada 1930-yilning martidakollektivlaslitirish foizi respublika bo'yicha 47 %danko'proqni taslikil

etgan bo'lsa, may oyiga kelib u 29% gacha kamaydi. 1930-yilning kuzidan boshlab dehqonlarga yangidan tazyiq o'tkazish to'liqini boshlandi. 1931-yilning yoziga kelib dehqon xo'jaliklarining 56,7% i birlashtirildi.

1931-yilning bahoridan boshlab O'zbekistonda yalpi jamoalashtiriladigan tumanlar qaytadan tuzildi. 1930—1933-yillari tugatilib, quloq qilingan xo'jaliklar soni 5,5 mingtaga yetdi.

Majburan ko'chirib yuborilganlarning ahvoli nihoyatda og'ir kechdi, ularning ko'pchiligi yo'lda nobud bo'ldi. Quloq qilinganlarning bir qismi Ukraina, Sibir va Qozog'istonning odamyasliamaydigan cho'llariga, o'rmonlariga surgun qilindi, yana bir qismi respublikaning boshqa joylariga zo'rlik bilan ko'chirildi. Kolxozlashtirishga qarshi chiqishim mumkin deb hisoblangan tadbirkor xo'jaliklarni, ruho-niylarni «uchlik», ya'ni partiya, sovet, icliki ishlar organ-lari rahbarlaridan iborat komissiya qarori bilan quloq qilganlar. Ko'chirilganlar uchun respublikaning o'zida — chekka joylarda 17 ta «quloq qishloqlari», aniqrog'i, lagerlari taslikil qilingan.

Shunday lagerlardan bin Samarqand viloyatidagi Miyonko'l orolida joylashtirilgan edi. Miyonko'llik eksalarning eslashticha, 30-yillarning boshlarida buyerga icliki ishlar organlari xodimlari bir necha ming quloq qilinganlarni keltirib joylashtirgan. Ular kelganida orolning to'qayzorlarida qayrag'och, saksovul vaqamishlar o'sib yotardi. Orol o'rtasi botqoqlik va ko'llar-dan iborat edi. Bandilarga zovurlar qazdirilib, botqoqlik-lar suvi quritilgan, qayrag'ochlar, saksovullar kesilib pechlarda yoqilgan. Ular qamishlardan bo'yralar to'qib, lager qurganlar. Bu lagerda NKVD xodimlari bandilarni oddiy hayvonchalik qadr qilmay kamsitar, xo'rlar, ovoz chiqarishsa birovdan so'ramay otib taslilar, beayov ish-latardilar. Quloqlar Miyonko'l orolida yer chopar, paxta, sholi ekardilar. Ko'p bandilar mehnatning maslihaqatlaridan, ochlikdan, kasallikdan, soqchilarning zulm va azoblaridan begunoh o'lib ketdilar. Har kuni o'nlab murdalar o'ris aravabriclikasida bandilarning o'zlariga qazigan handaqlarga kafansiz eltib taslilanar edi. 1930—1933-yillarda Miyonko'l da Farg'ona vodiysi va boshqa viloyatlardan quloq qilib keltirilgan begunoh kishilarning yarmiga yaqini qatl etilgan.

Surgun qilingan quloqlarning ahvoli ko'chirilgan-larnikidan oson bo'lmagan. Ularning bola-chaqalariba'zan dim, ba'zan sovuq usti yopiq masliinalarda, qizilvagonlarda uzoq-uzoq Rossiya o'lklariga olib ketilardi. Yo'l azobiga, issiq-sovuqlarga, suvsizlik, ochlikka chi-damay, quloq qilinganlarning ko'pchiligi manzilga yetib bormasdan halok bo'lardi.

Forishlik tibbiyot olimi A. Abdurahmonov otasi vaqariyalardan eshitib hikoya qilishicha, Forish tumanidan 1929—1933-yillarda bir necha yuz xo'jalik quloq qilingan. Shu tumanning Nokurt qishlog'idan o'ndan ortiq xo'jalik, jumladan, uning otasi va ikki amakisi Stavropolo'lkasining Terek o'rmonlariga surgun qilingan. Otasi 10 yil muddatni o'tab, ona-yurtiga qaytgan. Ammo ikki amakisi o'sha yerda sovuq va ochlikdan o'lib

ketgan. Barcha quloq qilinib surgun qilingan va ko'chirilgan-larning taqdiri shunday kechgan. Ularning taxminan uchdan ikki qismi halok bo'lgan.

O'zbekiston qishloq xo'jaligini jamoalashtirish ras-man 1932-yili poyoniga yetdi. Shu vaqtga kelib respub-likadagi dehqon xo'jaliklarining 75 foiziga yaqin qismini umumiy lashtirilgan sektorga birlashtirildi. Yakka xo'jalik dehqonlarning bir qismi kolxozlardan tasliqarida qoldi, lekin ularga iqtisodiy jihatdan tazyiq o'tkazish yanada kuchaydi. Yakka xo'jaliklarga solinadigan qishloq xo'jalik soliqlari oshirildi, davlatga majburan topshiriladigan mahsulot hajmi esa kokozlar uchun belgilangan me'yorlarga qaraganda 50 foizga ko'paytirildi. 1939-yil gake lib esa respublikada yakka xo'jaliklarga butkul barhamberildi. Jamoalashtirish qishloq xo'jaligini ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bilan boshqarishni mustalikamladi, dehqonlarning mustabid davlat asoratiga tushishiga yo'lochdi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini jamoalashtirish davrida 40000 dan ortiq dehqon xo'jaliklari quloq qilinib, ulardan 31700 tasi qatag'on qilindi.

Kolxoz tuzilishining eng boshidan qishloq xo'jalik artellari mulklarini davlat tasarrufiga o'tkazish boshlandi. Kolxozlar dehqonlarning ishlab chiqarish vositalarini birlashtirish asosida tuzildi, bu vositalar yagona bo'linmas fondga qo'shildi. Mabodo kolxozchilar kokozdan chiqib ketadigan bo'lsalar, vositalar ularga qaytarib berilmas edi. Bu dehqonlarning mulkdan ajralishini boshlab berdi. Kokozlar iqtisodiy jihatdan butunlay davlatga qaram bo'lib qoldi. Ularning mustaqilligi va tasliabbusi keskin cheklandi.

Yirik ishlab chiqarish vositalari MTSlar ko'rinishida davlat qo'lida to'planib bordi. MTSlar kokoz dalalarini natural haq evaziga ishlab berar, bu haqning miqdorlari esa yuqoridan belgilab berilardi. 1933-yil boshlariga kelganda O'zbekistonda 73ta MTS ishlab turdi. Ular qishloq xo'jaligini texnik jihatdan qayta qurishni tezlashtirdi, lekin texnikani ularda to'plasli qishloq mehnati imkoniyatlarini ochib berishga yordam qilmadi. Amalda kolxozlar ham, MTSlar ham yer egalari emasdi-lar, yerning egasi aslida davlat bo'lib qoldi.

MUSTABID SOVET REJIMININGO'ZBEKISTONDAGI OMMAVIY QATAG'ON VA TERROR SIYOSATI

20-yillarning o'rtalaridan boshlab mamlakat va respublikada totalitar jamiyatning xususiyatlari tobora oslikora ko'rina boshladi. Bu holat xususan milliy respublikalardagi rahbar xodimlarga nisbatan bo'lgan munosabatda yaqqol namoyon bo'ldi. Mamlakatda qaror topgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimiva uning rahbar o'zagi hisoblangan Butunittifoq kom-munistlar (bolsheviklar) partiyasi — VKP(b) bu paytgakelib yangi iqtisodiy siyosatdan butunlay yuz o'girdi va «sotsializm asoslari»ni qurishga jiddiy kirishdi.

Mustabid sovet rejimi o'zgacha fikrlasliga mutlaqotoqat qila olmas edi. Lenin tomonidan allaqachon e'lonqilingan «Kim biz bilan birga bo'lmasa, u — dushmani-mizi» shiorini Stalin shafqatsizlik bilan amalga oshirish-ga kirishdi. Sovet rejimi dasta vval mavjud tuzumga mu-xolifatda turganlarga qarshi repressiya (qatag'on) siyosa-tini amalga oshirgan bo'lsa, 30-yillardan boshlab o'z xalqiga nisbatan ommaviy terror (qatli oni) qo'lladi.

20-yillarning ikkinchi yarmi va 30-yillar boshida O'zbekistonda «o'n sakkizlar guruhi», «inog'omovchi-lik», «qosimovchilik», «badriddinovchilik» singari ishlarto'qilishi va Munavvar Qori boshchiligidagi milliyziyolilarning qamoqqa olinishi natijasida o'zbek xalqi-ning ko'plab asl farzandlari qatag'on qilindi.

«O'n sakkizlar guruhi» masalasi O'zbekiston Kompartiyasi MK IV plenumi (1925-yil 19—22-noyabr), RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi maxsus komissiyasi (1925-yil 21—22-noyabr) va O'zbekiston Kompartiyasi II s'yezdi (1925-yil 22—30-noyabr) majlis-larida ko'rib chiqildi. O'zbekiston hukumati a'zolari, viloyatlar rahbarlari va yirik xo'jalik boshliqlaridan 18 nafar obro'li kishi o'z talablari bilan O'zbekiston Kompartiyasi MK plenumi va O'rta Osiyo byurosigayozma ravishda murojaat qilishgan edi.

Muxtor Saidjonov (Zarafshon okrujkomi kotibi), Rahmat Rafiqov (O'zbekiston icliki ishlar xalq komis-sari), Inomjon Xidiraliyev (O'zbekiston yer-suv ishlarixalq komissari), M.O'rinxo'jayev, Muzaffarov, Max-sumov va boshqa milliy rahbar xodimlar o'z murojaat-larida respublikada ishlasli uchun toqat qilib bo'lmaydi-gan vaziyat yaratilganligini, amalda butun hokimiyat RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining raisi I.A.Zelenskiy va O'zbekiston Kompartiyasi mas'ul kotibi V.Ivanov qo'lida to'planganligini bayon qilishdi. Ular Moskvaning favqulodda organi hisoblangan O'rta Osiyo byurosini tugatish fikrini bayon qilishdiki, bu go'yoki quyoshli osmonda momaqaldiroq gulduraslii bilan barobar edi. O'n sakkizlar guruhi mazkur talablar qondirilmasa, o'zlarini O'zbekistondagi vazifalaridan ozod qilib, Moskvaga — RKP(b) MK ixtiyoriga yuborishlarini so'raslidi. 1920-yilda shunga o'xshasli talablar (Turk komissiyani tugatish, qizil armiyani Turkistondan olib ketish va b.) bilan Turkiston MIK raisi T.Risqulov Leninga murojaat qilgan edi. O'n sakkizlar guruhining harakatlarini hukumat boshlig'i

Fayzulla Xo'jayev faolqo'llab-qu vvatladi. U bu guruhning rasmiy a'zosibo'lmasa ham, aslida ularning g'oyaviy ilhomchisi edi.

Biroq O'rta Osiyo byurosi milliy rahbarlarning (o'nsakkizlar guruhiga keyinchalik yana boshqa mas'ulxodimlar ham qo'shildi) bu haqli talablarini nafaqat radqilishdi, balki uning mohiyatini soxtalashtirishga muvaf-faq bo'ldi. Kommunistik mafkuraning rasmiy siyosatitirishicha, go'yoki o'n sakkizlar guruhi respublikadayer-suv islohoti o'tkazilishi va boshqa tadbirlarga qarshichiqib, boylar manfaatini ko'zlagan. Aslida o'zbek xalqimanfaatlarini himoya qilgan bu rahbar xodimlar 1925-yilning oxiridayoq O'rta Osiyo byurosining talabi bilano'z mas'ul lavozimlaridan olib taslilandi.

«**Inog'omovchilik**» O'zbekiston maorif xalq komissari (1925—1926), O'zbekiston Kompartiyasi MK matbuot bo'limi mudiri (1926-yil) lavozimlarida ishlagan **Rahim Oxunjonovich Inog'omov** (1902—1938) nomi bilan bog'liqdir.

R.Inog'omov «O'zbekiston ziyolilari» (1926) risolasi- da o'zbek xalqi bolsheviklar amalga oshirgan oktabr

to'ntarishiga nisbatan noxush munosabatda bo'lganligini ko'rsatgan edi. U o'zining bir qator maqola va nutqla- rida O'zbekiston Kompartiyasining bolsheviklar mar- kazining mustamlakachilik siyosatiga qarshi kuraslima-yotganlikda, VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi (Средаз- бюро) va O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengaslii (Средаз- ЭКОСО) kabi Markazning nazoratchi organlarini zo'ravonlikda ayblaydi.

R.Inog'omov O'zbekiston yozuvchilarining Samar-qanddagi «Qizil qalam» jamiyati faoliyatini dastlabyo'naltirib turgan edi.

VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi va O'zbekistonKompartiyasi MK RInog'omovning to'g'ri muloha-zalari va uning fikriga qo'shilganlarni partiyaga qarshi«inog'omovchilik guruhi» deb aybladi va ularga qarshikurasli uchun respublika partiya taslikilotini oyoqqaturg'azdi. 1926-yil 12-dekabrda O'zbekiton Komparti-yasi MK Ijroiya byurosi va plenumida bu masala ko'ribchiqilib, inog'omovchilik — mayda burjua va millatchi-likka tomon og'ish, deb qoralandi. Dekabr oyidaR.Inog'omov o'z vazifasidan olib taslilandi. 1927-yilyanvar oyida VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosida ham buish maxsus ko'rilib, «inog'omovchilik o'ng oppozitsiyabilan g'oyaviy yaqinlikda» ayblandi.

O'zbekiston Kompartiyasining III s'yezdi (1927-yil noyabr) R.Inog'omovni «g'oyaviy jihatdan» tor-mor qilindi deb hisoblab, uni Qasliqadaryo okrugining eng chekka qishlog'iga ishlasli uchun jo'natadi. 1930-yil 30- niayda «Правда Востока» gazetasida R.Inog'omovning «ochiq xati» uyushtirilib, u tavba-tazarru qildiriladi.

Sovet rejimi milliy rahbarxodimlarni faqat lavozimlari-dan chetlatib, ularni «g'oya-viy jihatdan» tor-mor qilishdan 20-yillarning oxiriga kelganda, endilikda jismoniymahv etishga kirishdi. Bu jihatdan olganda O'zbekistonOliy sudi organlarida o'tkazilgan qatag'onlar xarakterlidir.

Markazning tazyiqi bilan O'zbekiston Kompar-tiyasining IV s'yezdi (1929-yil 17-fevral—2-mart)dankeyin jazo mexanizmi ishga tushirildi.

O'zbekiston SSR Oliy sudining raisi **Sa'dulla Qosimov** 1929-yil mart oyida lavozimidan bo'shatilib, qamoqqa olindi. U bu vazifada 1926-yildan boshlab ish-layotgan edi. S.Qosimov va uning 6 ta tarafdori ustidan SSSR Oliy sudi sayyor sessiyasi 1930-yil 26-mart — 22-iyunda Samarqand shahrida sud jarayonini o'tkazdi. S.Qosimov bilan birgalikda O'zbekiston SSR Oliy sudi-ning sobiq prokurori Badriddin Sharipov, eski Toslikentning sobiq sudyasi Mirsoat Mirzokirov, Mir-zacho'l tumani sobiq sudyasi Ibrohim Xo'jayev, advokatlar kollegiyasining sobiq a'zosi Spiridonov, yirik savdogarlar Nasritdin Alimov va Samig'jonov — jami 7 kishi aybdor deb topildi. Markazdan kelgan jazo organ-lari (sud raisi — Vasilyev-Yujin va prokuror-R.Katanyan) ishga ataylab siyosiy tus berishdi. S.Qosimov va uning tarafdorlari «bosmachilar»ni qo'llab-quvvatlashida, «aksilinqilobchi millatchi taslikilotlar» a'zolaribilan aloqa bog'laganlikda, islom dinini himoya qilishda ayblanib, ularga «**qosimovchilik**» yorlig'i bosildi. Holbuki, S.Qosimov va B.Sharipov o'z xizmat vazifalarini bajarish vaqtida tub millat manfaatlarini imkoniyat doirasida himoya qilishgan edi. S.Qosimov tergov va sud jarayonida SSSR Oliy sudi O'zbekistonning suveren huquqi va milliy manfaatlarini poymol qilayotganligini o'cbib taslilasidan cho'chimadi.

Sovet rejimi uch oy davom etgan sud jarayonini doimiy ravishda matbuotda yoritib bordi. Lekin uning kommunistik mafkura asosida yondoshilib, ishning mohiyati soxtalashtirildi. 22-iyunda S.Qosimov, B.Sharipov, N.Alimov, Spiridonov otib o'ldirishga, qolganlar esa 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilindi. Ularning butun mulki musodara qilinib, davlat hisobiga o'tkazildi.

Oradan ko'p o'tmay navbatdagi ish — «**badriddinovchilik**» o'ylab topildi. 1932-yil 5-may — 15-iyunda Toslikent shahrida SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi-ning sayyor sessiyasi **Shamsutdin Badriddinov** va uning 5 tarafdori ustidan sud jarayonini o'tkazdi. Sh.Badriddinov 1929-yilda Farg'ona okrugi prokurori, keyin-chalik O'zbekiston SSR Oliy sudining prokurori lavozimlarida ishlagan bo'lib, u va tarafdorlari 1931-yilda qamoqqa olingan edi. Sh.Badriddinovga «Milliy Ittihod» taslikiloti a'zolari va «bosmachilar» bilan aloqa bog'lagan, Munavvar Qori va S.Qosimovning yaqin do'sti vahamfikri bo'lgan, degan ayblar qo'yildi. Bu sud jarayonida ham prokuror R.Katanyan edi. Sh. Badriddinova vval otishga hukm qilinib, so'ngra o'lim hukmi 10 yil qamoq muddati bilan almashtiriladi. Uning Muhammadjon Xo'jayev, Abdurahmon Rahmonov, Mahmud-xon Ahmadjonov, Muhitdin Sadixonov, Ibrohimjon Musaxonovlardan iborat 5 ta tarafdori ham uzoq muddat qamoq jazosiga hukm qilinadi.

Sovet rejimi sud organlaridagi milliy rahbar xodim-larni qatag'on qilish bilan birgalikda jazo qilichini maorif jabhasidagi ziyolilarga ham qarshi ko'targan edi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, haqiqatdan ham O'zbekiston SSRda davlat hokimiyatining rasman qonun chiqaruvchi oliy organi Sovetlarning okrug va rayon qurultoylari tomonidan saylanadigan vakillardan tarkib topadigan Sovetlar qurultoyi bo'ldi, respublika davlat boshqaravining oliy organi esa Xalq Komissarlar Kengaslii bo'lib qoldi.

O'zbek qishlog'ini rivojlan-tirishda 20-yillarning o'rtala-riga kelib ba'zi yutuqlarqo'lga kiritildi. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi bilano'zbek dehqoni erkinroq nafas ola boshladi. Oziq-ovqatrazvyorstkasining oziq-ovqat solig'i bilan almaslitirilishidehqonga ortiqcha mahsulotni sotishga, shuningdek,g'o'za va boshqa ekinlar maydonini kengaytirishgaimkon berdi. Buning natijasida dehqonlarning tovarlarbilan ta'minlanishi o'sdi, ularning turmush darajasi bir qadar ko'tarildi.

1925-yilda o'zbek qishloqlarida 1917-yil oktabrto'ntarishidan oldingi rivojlanish tamoyillari saqlanibqolgan edi. Qishloqda ijtimoiy tabaqalanish mavjudbo'ldi, yersiz dehqonlar barcha xo'jaliklarning taxminan10 %ini, 1—3 desyatinagacha yeri bor kam yerli dehqonlar 64 %ini, 3—10 desyatinagacha yeri bor o'rtaholdehqonlar 20 %ini, 10 desyatinadan ortiq yerli boydehqonlar 6 %ini taslikil qilgan. Bu boy xo'jaliklar bar-cha xo'jaliklar yerlarining 36 %iga egalik qilganlar. Boyxo'jaliklar ikki toifaga bo'lingan. Bular — 40—50 desyatinadan ortiq sug'oriladigan yeri bor boy xo'jaliklar va10—40 desyatinagacha yerli o'ziga to'q xo'jaliklar.Chorakor, yetim, qarol kabi dehqon tabaqalari asosanboy xo'jaliklarning yerini ijaraga olib, unda ishlab, oilasi-ni boqar edi. Katta yer egalari odatda yerga ishlovberishga qatnaslimay, chorikorlar yetishtirgan hosildano'z ulushini olib, boshqalar hisobiga yasliardilar. Quloqxo'jaliklar a'zolari yerda o'zlari ishlagan va ortiqcha yer-larini ijaraga bergan. Yerni ijaraga bergan, birovlariningkuchidan foydalanganlarni sovet hukumati ekspluatatordeb yomonotliqqa chiqardi.

20-yillarning o'rtalaridan boshlab mamlakat va respublikada totalitar jamiyatning xususiyatlari tobora oslikora ko'rina boshladi. Bu holatxusususan milliy respublikalardagi rahbar xodimlarga nis-batan bo'lgan munosabatda yaqqol namoyon bo'ldi.Mamlakatda qaror topgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimiva uning rahbar o'zagi hisoblangan Butunittifoq kom-munistlar (bolsheviklar) partiyasi — VKP(b) bu paytgakelib yangi iqtisodiy siyosatdan butunlay yuz o'girdi va«sotsializm asoslari»ni qurishga jiddiy kirishdi.

Mustabid sovet rejimi o'zgacha fikrlasliga mutlaqotoqat qila olmas edi. Lenin tomonidan allaqachon e'lonqilingan «Kim biz bilan birga bo'lmasa, u — dushmani-mizi» shiorini Stalin shafqatsizlik bilan amalga oshirish-ga kirishdi. Sovet rejimi dasta vval mavjud tuzumga mu-xolifatda turganlarga qarshi repressiya (qatag'on) siyosa-tini amalga oshirgan bo'lsa, 30-yillardan boshlab o'zxaqligiga nisbatan ommaviy terror (qatli oni) qo'lladi.

Shunday qilib, O'zbekistonda qishloq xo'jaligini jamoalashtirish davrida 40000 dan ortiq dehqon xo'jaliklari quloq qilinib, ulardan 31700 tasi qatag'on qilindi.

Kolxoz tuzilishining eng boshidan qishloq xo'jalik artellari mulklarini davlat tasarrufiga o'tkazish boshlandi. Kolxozlar dehqonlarning ishlab chiqarish vositalarini birlashtirish asosida tuzildi, bu vositalar yagona bo'linmas fondga qo'shildi. Mabodokolxozchilar kokozdan chiqib ketadigan bo'lsalar, vositalar ularga qaytarib berilmas edi. Bu dehqonlarning mulkdan ajralishini boshlab berdi. Kokozlar iqtisodiy jihatdan butunlay davlatga qaram bo'lib qoldi. Ularning mustaqilligi va tasliabbusi keskin cheklandi.

Yirik ishlab chiqarish vositalari MTSlar ko'rinishida davlat qo'lida to'planib bordi. MTSlar kokoz dalalarini natural haq evaziga ishlab berar, bu haqning miqdorlariga esa yuqoridan belgilab berilardi. 1933-yil boshlariga kelganda O'zbekistonda 73ta MTS ishlab turdi. Ular qishloq xo'jaligini texnik jihatdan qayta qurishni tezlashtirdi, lekin texnikani ularda to'plashi qishloq mehnati imkoniyatlarini ochib berishga yordam qilmadi. Amalda kolxozlar ham, MTSlar ham yer egalari emasdi-lar, yerning egasi aslida davlat bo'lib qoldi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. I. A. Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q”. T., 1998 y.
2. I.A.Karimov. Istiklol va ma`naviyat. T., «Uzbekiston», 1994.
3. O`zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi.T.1997.
4. Azamat Ziyov. “O`zbek davlatchiligi tarixi”. T., 2000y.
5. Uzbekistonning yangi tarixi (tuzuvchilar: X.Sodikov, R.SHamsutdinov va boshq.) II-kitob. T., «SHark», 2000.
6. Shamsuddinov R

Урганч давлат Университети
Тарих факултети 202 тарих
гурух талабаси Ниёзметова
Гузоданинг Узбекистон
халклари тарихи фанидан
«Узбекистонда маъмурий
буйрукбозликнинг
шаклланиши» мавзусида ёзган
рефератига ички

ТАРКРИЗ

Талаба Ниёзметова Гулзода Маъмурий буйрукбозлик тизхими ва унинг огир окибатларини уз рефератида очиб беришга харакат килган бунда талаба маъмурий буйрукбозлик асосида саноатлаштириш, кишлок хужалигини жамоалаштириш оммавий катогонлик сиёсатини амалга оширилиши кийинчиликлари йулкуйилган хотоликларва уларнинг окибатлари очиб берилган. Шу билан талаба мустабид шурулар даврида йул куйилган хатоликлар ота-боболаримиз бошига ёгилган кийинчиликлар эканлигини курсатиб берган реферат манбаларидан мавзщуга алокадор адабиётлардан ва Интернет материалларидан фойдаланилагн холда ёзилган. Келажакда укувчи ва талабаларга шу давр тарихини урганишга ёрдам беради.

Такризчи:

к/ук . Х. Тангирова